

QADIMGI TURK XALQLARIDA DINIY MAROSIMLAR

Xurramov Nodirbek Ilhomovich

Toshkent davla Sharqshunoslik

Unversiteti Sharq sevilizatsiyasi va Falsafa fakulteti Sharq

Mamlakatlari Tarixi yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19501797>

Annotatsiya. Mening ushbu maqolamda Qadimda katta bir buyuk tarixga ega bo'lgan turk xalqlarining diniy marosimlari haqida so'z boradi. Turklar eski zamonlardan yaqin-yaqinlargacha, yani 2500 yillik tarixi davomida moddiy-ma'naviy unsurlar orasida eng ko'p muvozanat saqlab qola olgan millat hisoblanadi. Uch qitta va keng o'lkalarda qo'rilgan tarixiy turk xokimiyati muvozanat asosida rivojlangan. Turklar tarix sahnasiga chiqqandan buyon Shomoni va Islom davrlarida bir Ollohga e'tiqod qilishgan. Islomgacha bo'lgan vaqtda turklar Shomoniylilik yani Kuk tangriga sig'inishgan. Usha davrda Shomoniylilik dinining turklar orasida tarqalishi bu ularning kuproq chorvachilik bilan shug'ilanishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Qadimgi turklar asta-sekinlik bilan turli xil o'lkalarga tarqalib keta boshlashadi shundan so'ng har bir qavmlarning shomoniylilikning bir biridan farq qiluvchi diniy marosimlari shakilanadi. Har bir qavmlarning dinining unsurlari bir biridan farq qilgan. Shu bilan birga qolgan ma'lumotlarni maqolaning davomida bilib olamiz.

Kalit so'zlar: Turk qabilalari, urug', marosimlar, din, Kuk tangri, Shomoniylilik, Shaman, ko'p hudolilar,

Abstract. This article of mine talks about the religious ceremonies of the Turkic peoples, who have a great history in ancient times. Turks are the nation that has been able to maintain the most balance between material and spiritual elements from ancient times to recent times, that is, during its 2,500-year history. The historical Turkish power, which was preserved on three continents and vast lands, developed on the basis of balance. Turks have believed in one God since they appeared on the stage of history during the Shomani and Islamic eras. In the pre-Islamic period, the Turks worshiped the god of Shamanism, i.e. Kuk. At that time, the spread of the Shamomi religion among the Turks was due to their extensive cattle breeding. The ancient Turks gradually began to spread to different countries, after which the different religious rituals of shamanism of each people were established. The elements of the religion of each people differed from each other. At the same time, we will learn the rest of the information in the course of the article.

Keywords: Turkic tribes, clan, rituals, religion, Kuk god, Shamanism, Shaman, many gods,

Абстрактный. В этой моей статье рассказывается о религиозных обрядах тюркских народов, имеющих великую историю в древние времена. Турки – это нация, которая сумела сохранить наибольший баланс между материальными и духовными элементами с древнейших времен до недавнего времени, то есть на протяжении своей 2500-летней истории. Историческая турецкая держава, сохранившаяся на трёх континентах и обширных землях, развивалась на основе равновесия. Турки верили в единого Бога с тех пор, как появились на исторической арене в эпоху Шомани и ислама. В доисламский период тюрки поклонялись богу шаманизма, т.е. Куку. В то время распространение религии шамоми среди тюрков было связано с их обширным скотоводством. Древние тюрки постепенно начали распространяться по разным странам, после чего у каждого народа утвердились разные религиозные обряды

шаманизма. Элементы религии каждого народа отличались друг от друга. Заодно остальную информацию мы узнаем по ходу статьи.

Ключевые слова: Тюркские племена, род, ритуалы, религия, бог Кук, шаманизм, Шаман, многие боги.

KIRISH

Millatlarning tarixiy qudrat va o'zliklariga ko'ra yuksalish va tanazzullariga oid bir qancha siyosiy tuyg'u va etiqodlarga soxib ekanliklarini bilamiz, shu bilan turk xalqlari ham, keyinchalik ularning avlodlari tuzgan turkey davlatlar ham jahon xokimiyatiyu, dunyo nizomini davo qiluvchi millatlar, va turli sinflar o'rtasidagi totuvlik va adolatni ta'sis etishda turk xalqlarining o'rni ularning barchasidan yuqori edi. Shu bilan birga bir ma'lumotni aytib utish kerakki Turklarning jahon hokimiyati va yevropa xalqlarining mafkurasiga kirib kelishi buyuk turk imperatorligini qurgan xunlar va ularning hukmdori Metidan boshlanadi. Xunlarning IV asrning 70-yillarida ommaviy ravishda G'arbgga siljishlari orqali o'zoq yillar davomida hukmronlik qilgan jahon sahnasida sunmas sham deb nomlangan Rim davlatiga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan. Shu voqiyadan turklar yevropa xalqlari bilan qushilib ketta boshladi. Bu voqiya turklarni madaniyatiga, diniy itiqodlariga judda kata tasir kursatgan voqiya bulib tarix sarlavhasiga keritildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI: Eski turk diniga yani (Shomoniylkga) binoan „Turk Tangrisi“ turk millatining xomiysi bo'lganidek, turk yurtlari, xususan tog'lari, buloqlari, suvlari, ota-bobolarining mozorlari va xotiralari ham muqqadas ruxlarning maqomi xisoblanib, mamlakatning qo'riqchisi xisoblanadi. Shu bilan birga boshqa turk xalqlariga qaraganda Turk xoqonlari va xalqi judda dindor va millatchi xalq bo'lib, Tangrining o'zlarini turk millatini qurganiga, shu maqsadda xonlarni bor etganiga samimiyat bilan ishonishardi.

Bunaqangi o'zini va xalqini boshqa turk xalqlariga qaraganda kuchli kursatadigan qarashlar ko'p bulgan turk xalqlarida.

Qadimgi turk xalqlari judda katta xududlarga tarqalib ketganligi uchun, turli xil dinlar va madaniyatlar tasiriga uchraydi. Shu bilan birga XI asrda umumiy va bir din holiga kelgunga yani Islom dinini qabul qilmaguncha Shomoniylk diniga e'tiqod qilib kelishgan. Bu davrlarda shomoniylk ko'chmanchi jamoalar orasida mutloq xokim edi. Xirodotninig ma'lumot berishicha, shomoniylkning tarixi millodan avvalgi XI asrga borib tarqaladi.

Qadimda bizgacha saqlanib qolgan bittiklar va qadimgi yozuvlarda Shomoniylk haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu ma'lumotlarda Kuk Tangri butun maxluqlar yaratuvchisi, insonlarning yaxshi va yamon taqdirlarini tayin etuvchi yagona „Tangri“ to'g'risidagi fikr mavjudligini kursatmoqda. Bitiklardan tashqari turklarning qadimgi dini haqidagi ma'lumotlar turli xalqlarning yil nomalarida ham yozib qoldirilgan. Masalan; Xitoylarning „Veysu“ va „Siysu“ yilnomalarida turklarning qadimgi dini haqida yozib qoldirilgan.

„Veysu“da turkut diniga xos quyidagi aqidalar kursatilgan:

- 1) Kunchiqar mamlakatiga extirom yuzasidan xon o'rdasiga kirish sharq tomondan bo'ladi.
- 2) Xar yili xon barcha ayonlari bilan ajdodlar g'orida qurbonlik qiladi.
- 3) Beshinchi oyning o'rta o'n kunligida barchani yig'ib, daryo bo'yida kuk ruhiga bag'ishlab qurbonlik beradi.
- 4) Dugindan 500 li g'arbda baland tog' bor, uning tepasida na daraxt, na o'simlik o'sadi.

Uni Bo'dininli deb atashadi, Bu so'z tarjima qilinsa „Mamlakatning xomiy ruxi“ degan ma'noni bildiradi.

„Siysu“ yilnomasi VeysHUDan 50 yil o‘tib yani (VII asrning 30-yillarida) tuzilgan va unda yuqoridagi xabarlar uchramaydi. Ularning urniga qisqaroq qilib: „Shayton va arvoHLarga sig‘inishadi, jodugarlarga ishonishadi“ deb yozilgan.

Olimlarning olib borgan tadqiqotlari davomida qadimgi turklarning doyimiy kunlik ibodatlari va ibodatxonalari bo‘lgani to‘g‘risidagi bironta hujjat topa olishmagan. Lekin Kuk-turklar bayram xamda muqaddas joylarda duo o‘qish, qurbonlik qilishdan tashqari biron-bir safar oldidan zafar duosi o‘qiganliklari va shu duodan so‘ng yulga chiqqanliglari ehtimolga yaqin.

Chunki Chin manbalarida „Fu-yo‘n-se“ nomli ibodatxonaning borligi haqida ma‘lumot berib o‘tilgan. Tarixchi sayoh Qazviniy ham Yettisuv atrofida qarluqlarga tegishli bir ibodatxona bo‘lganligini va ichida eski hukmdorlarning rasmlari osilganligini takidlab o‘tadi.

Islomgacha bo‘lgan davrlarda dastlab Kuk-turklar keyinroq esa o‘g‘iz, qirg‘iz, boshqirt va qolgan bazi turk uluslari xatto X asrga kelib ham bunaqangi diniy saviyaga yetishmagan edi.

Islom dini VI asrlarda paydo bo‘lgandi. Bu o‘z-o‘zida shuni ma‘lum qiladiki X asrda ham turkey xalqlari orasida islom dini tuliq yoyilmagan degan fikrni ilgari suradi. Masalan: Boshqirdlar eng ulug‘i kukda hisoblangan turli mabudlarga sig‘inishgan. Qirg‘izlar hindlar kabi o‘liklarni yoqishgan. Faqat keyinroq islom tasiri bilan janoza o‘qib ko‘mishadiga bo‘lgan.

Qolgan turk urug‘lari esa quyoshga, yulduzlarga, ulug‘ tog‘ va daryolarga tangrilik sifatini beradilar. Oltoy turklari bo‘lsa, yaqin-yaqinlargacha Qoraxonni tangrilarning eng buyugi deb hisoblashgan.

Endi turkut xalqining diniy tasavvuriga etiborimizni qaratadigan bo‘lsak. Men qadimgi turkut dini haqida gapiradigan bo‘lsam, ularning dinini ibtidoiy deb uylashdan ancha yeroqman.

Chunki Turkutlarning o‘zlari V-VII asrlarda turli xil qabilalardan tashkil topgan edi.

Ularning dini ham o‘sha davrga tegishli din sifatida boshqa zamondosh dinlar darajasida tarqiy topgan edi. Kurkutlar dini; Ko‘kga sig‘inish-Tangriga sig‘inish O‘rxo‘n bitiklarida ham qayd etilgan bo‘lib. Yozilishicha; „Avval yuqorida moviy osmon, quyida qora yer bo‘lgan, ular o‘rtasida inson bolalari paydo bo‘lgan“, degan qarash mavjud bo‘lgan.

Shu bilan birga turk xalqlarining O‘g‘uz qabilasining dini marosimlariga tuhtalib o‘tadigan bo‘lsak. O‘g‘uz turklarining qurbonlik marosimlari shaylan yoki bayram deb atalgan.

Turk qabilalari orasida utkaziladigan bayram kunlari qurbonlik qilinadigan hayvoning „sog‘uk“ deb nomlangan qismlari o‘g‘uz qabilalariga taqsimlangan. Bu taqsimlash ma‘lum bir tartibda amalga oshirilgan bo‘lib, unga kura. O‘g‘uz urug‘i o‘zi xohlagan qismini ololmaydi, ularga berilgan qismni boshqa urug‘ga berib bo‘lmaydi. Bu jihatdan shaylan deb atalgan qurbonlik marosimi aslida o‘g‘uz qabilalarining yiliga bir marta yig‘ilishlarini va qabilalarining o‘g‘uz ittifoqiga bo‘ysinishini ko‘rsatishini taminlaydi. Qurbonlikdan o‘z bo‘lagini olgan qabila o‘zining O‘g‘uz qabilalari orasida o‘z o‘rniga ega ekanligini biladi va marosim maydoniga kelib, ittifoqning bir bo‘lagi bo‘lganligini e‘lon qiladi. Qurbonlik qilingan hayvonning oyoq-qo‘llari o‘g‘uz qabilalarining ramzi hisoblangan.

Turk madaniyatida ilk davrlardan beri borligi aniqlangan yana bir marosim “Yug”dir.

Yug – qadimgi turklarda marhumdan keyin o‘tkaziladigan dafn marosimlarining umumiy nomi. Bu marosim haqida va bu so‘z haqida arxeolog tarixchilarimiz dastlab O‘rxun bitiklarida uchratishadi. Bu yerda Kultigin vafot etgach, uning uchun yug‘ marosimi o‘tkazilgani aytiladi.

Yozuvlarda keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, yug‘ marosimlarida “yug‘chi” va “sig‘itchi” deb atalgan matom tutuvchilar bo‘lganligi, marosimga kelganlar o‘zlari bilan oltin, kumush, mushk va qurbonlik keltirganliklari, ishtirokchilarning sochlarini qirqib, yuzlarini chizganlari va marhumga „balbal“lar tikilgani.

Qurbonlik yug‘ marosimlarining muhim qismini tashkil qiladi. Biz buni Xunnlarda ham, Go‘kturk davrida ham kuzatishimiz mumkin. Oltoy turklarida qurbonlik otini terisidan olib, xodaga bog‘lab qo‘ygan bo‘lsa, Xitoy tarixchilarining yozishicha, qadimgi turklarda qurbonlik qilingan qurbonlarning boshlari qutb uchiga yopishtirilgan. Qozog‘istonda dafn marosimlarida otning faqat dumi kesilib, qurbonlik qilish marosimi yakunlanadi.

Zamondosh Bizons tarixchisi Zeofilaktos o‘zining olib borgan tadqiqotlaridan kelib chiqib shuni ma‘lum qiladikiy qadimgi turklar to‘rt unurni ya‘niy tuproq, suv, olov va havoni muqadas deb husoblashgani, yagona tangriga sig‘inishganini, hamda unga ot, segir va quy qurbon qilishganligini takidlab utadi. Shu bilan birga turklarda kelajakdan xabar berib turadigan kohinlar borligini ham takidlab o‘tadi. X asrning birinchi yarmida o‘g‘uzlarni ziyorat qilgan xalifalik elchisi Ibn Fodlan; „Turklardan birining boshiga biron mushkulot tushsa, u boshini yuqori kutarib „Tangri bir“ deya duo etadilar“. – deya shomoniy turklarining Ollohga bo‘lgan ishonchi haqida guzal bir malumot berib o‘tadilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Qadimgi turk xalqlarining diniy e‘tiqodlari va marosimlari ularning butun hayot tarzini, dunyoqarashini va ijtimoiy tuzumini chuqur belgilab bergan.

Tengrichilik va shamanizm asosidagi bu e‘tiqod tizimi turklar uchun tabiat bilan uyg‘un yashash, osmon va yer o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, ajdodlar ruhiga hurmat ko‘rsatish kabi muhim qadriyatlarni shakllantirgan.

Diniy marosimlar nafaqat ibodat shakli, balki jamiyatni birlashtiruvchi, axloqiy me‘yorlarni mustahkamlovchi va siyosiy hokimiyatni muqaddaslashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Xoqon hokimiyati Ko‘k Tengri irodasi bilan asoslanganligi sababli, diniy marosimlar davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog‘langan. Bu holat diniy e‘tiqodning siyosiy legitimatsiya vositasiga aylanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, shamanlar orqali amalga oshirilgan marosimlar turk jamiyatida ruhiy sog‘lomlikni ta‘minlash, kasalliklar va balolarni daf etish, tabiat ofatlaridan himoyalanih kabi maqsadlarga xizmat qilgan. Ajdodlar ruhiga sig‘inish esa tarixiy xotira va nasl-nasabga hurmat tuyg‘usini kuchaytirib, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlagan.

Umuman olganda, qadimgi turk xalqlarining diniy marosimlari ularning madaniy o‘zligini shakllantirgan muhim omil bo‘lib, keyingi davrlarda islom, buddaviylik va boshqa dinlarni qabul qilish jarayonida ham ko‘plab qadimiy urf-odatlar xalq an‘analari sifatida saqlanib qolgan. Bu esa qadimgi turk diniy merosining tarixiy va madaniy ahamiyati nihoyatda katta ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Л.Н.Гумилев. Кадимги Турклар. Тошкент. „Фан“ 2007.
2. Bartold, V.V. Turkiston tarixi bo‘yicha tadqiqotlar. -Toshkent: „Fan“ nashriyoti, 1990-yil.
3. Eliade, Peter B. Shamanism: Archaic techniques of Ecstasy -Princeton: Princeton University Press, 1964.
4. Shoniyozov, K. Turk xalqlari tarixi. -Toshkent: „Sharq“ nashriyoti, 1999-yil.